

6 – TOM 3 – SON / 2022 - YIL / 15 - MART

**ALKOGOLSIZ ICHIMLIKLARNING XAVFSIZLIGI TO‘G‘RISIDAGI UMUMIY
TEXNIK REGLAMENTNI TASDIQLASH HAQIDA.**

Mukimjon Usmonovich

Assoc. Khakimov

Begaliyev Nurillo

*Master’s Degree Student, Ferghana Polytechnic Institute, Ferghana,
Uzbekistan*

Abstrakt: Ushbu maqolada alkagolsiz ichimliklarning xavsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamenti muhokama qilinadi.

Abstract: This article discusses the general technical regulations on the safety of non-alcoholic beverages.

Аннотация: В данной статье рассматриваются общие технические регламенты по безопасности безалкогольных напитков.

Kalit so‘zlar: Qonuniga muvofiq, reglament, O‘zstandart, O‘zbekoziq ovqatxolding, alkagolsiz ichimliklarga, xomashyo va tarkibiy qismlarga, texnik reglament, sut, mevalar.

Key words: In accordance with the law, regulation, Uzstandart, Uzbekoziq food holding, non-alcoholic beverages, raw materials and components, technical regulation, milk, fruits.

Ключевые слова: В соответствии с законодательством, регулирование, Узстандарт, продовольственный холдинг «Узбекозик», безалкогольные напитки, сырье и компоненты, техническое регулирование, молоко, фрукты.

**ALKOGOLSIZ ICHIMLIKLARNING XAVFSIZLIGI TO‘G‘RISIDAGI UMUMIY
TEXNIK REGLAMENTNI TASDIQLASH HAQIDA**

“Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shuningdek, alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligiga qo‘yiladigan yagona talablarni belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament (keyingi o‘rinlarda — Texnik reglament) va uni joriy etish sxemasi 1 va 2- ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Texnik reglament rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab o‘n sakkiz oy o‘tgach amalga kiritilsin.

2. “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni talablariga muvofiq texnik reglamentlar amalga kiritilishi munosabati bilan ularda ko‘rsatilgan mahsulotlar va xizmatlarni standartlashtirish bo‘yicha ilgari qabul qilingan normativ hujjatlar majburiylik xususiyatini yo‘qotishi va belgilangan tartibda qo‘llanilishida ixtiyoriylik kasb etishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. “O‘zstandart” agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab, Texnik reglament amalga kiritilgunga qadar alkogolsiz ichimliklarni standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarni qo‘llashda ularning majburiylik xususiyatini bekor qilish va ixtiyoriyligini ta’minlash yuzasidan belgilangan tartibda chora-tadbirlar ko‘rsin.

4. “O‘zbekoziqovqatxolding” XK, “O‘zstandart” agentligi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda Texnik reglamentning maqsadlari, mazmuni va uni qo‘llash tartibi to‘g‘risida aholi, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hamda tadbirdorlik subyektlarining keng xabardor qilinishini ta’minlasinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rribosari O‘.I. Barnoyevga hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi — Sanoatni va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘iga yuklansin.

Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament

1. Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament (keyingi o‘rnarda — Texnik reglament) aholi hayoti va salomatligini, atrof-muhitni, yuridik va jismoniy shaxslarning, davlatning mol-mulkini himoya qilish maqsadida alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligiga bo‘lgan talablarni belgilaydi.

2. Texnik reglamentga 1-ilovaga muvofiq ro‘yxat bo‘yicha keltirilgan alkogolsiz ichimliklar Texnik reglamentni tartibga solish obyektlari hisoblanadi.

3. Texnik reglament O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) muomalada bo‘lgan quyidagilarga:

alkogolsiz ichimliklarga;

xomashyo va tarkibiy qismlarga;

alkogolsiz mahsulotlarni ishlab chiqarish (tayyorlash), saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya qilish jarayonlariga tatbiq etiladi.

4. Texnik reglament:

bolalar ozuqasi uchun mo‘ljallanmagan;

O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilishi mo‘ljallanmagan;

eksport uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

5. Alkogolsiz ichimliklarga sut va mevalar va (yoki) sabzavotlardan olingan sharbat mahsulotlari kirmaydi.

Atamalar va ta’riflar

6. Texnik reglamentni qo‘llash maqsadlari uchun quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalilanildi:

mahsulotlarning ifloslanishi — mahsulotga narsa, bo‘lak, modda va organizmlarning tushishi natijasida u inson uchun xavfli holatga aylanadigan va Texnik reglament talablariga javob bermaydigan holati;

identifikatsiya — aniq bir mahsulotning namunaga va (yoki) uning ta’rifiga muvofiqligini belgilash;

mahsulot tayyorlovchi — mahsulotni tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

muomala — alkogolsiz mahsulotlarni xarid qilish (shu jumladan, import qilish), yetkazib berish (shu jumladan, eksport qilish), tashish, saqlash, sotish, utilizatsiya qilish;

mahsulotning ta’rifi — milliy, xalqaro, tashkilot standartlari, texnologik va boshqa tegishli hujjatlar bilan belgilangan mahsulotni tavsiylovchi belgilar, parametrlar, ko‘rsatkichlar va talablar to‘plami;

sotuvchi — alkogolsiz mahsulotni sotuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

ishlab chiqarish binosi — bevosita mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan bino;

bino, asbob va anjomlarga sanitariya ishlovi berish — oziq-ovqat mahsulotlari (xomashyo)ning ifloslanish manbasiga aylanib qolmasligi uchun bino, asbob va anjomlar yuzasini yuvish yoki boshqacha tarzda ishlov berish;

alkogolsiz mahsulotlarni saqlash muddati — hujjatlarda ko‘rsatilgan saqlash sharoitlariga rioya qilishda normativ va/yoki texnik hujjatlarda belgilangan xususiyatlarni alkogolsiz mahsulot o‘zida saqlovchi vaqt davri;

alkogolsiz mahsulotning yaroqlilik muddati — alkogolsiz mahsulotlarni saqlash, tashish, sotish paytida xavfsizlik me’yorlari va qoidalari talablariga rioya qilgan holda foydalanishga yaroqli bo‘lgan va muddati o‘tgandan so‘ng inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaqt davri;

alkogolsiz ichimliklarni utilizatsiya qilish — sanitariya me’yorlari va qoidalari, texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan alkogolsiz ichimliklardan alkogolsiz ichimliklar mo‘ljallangan va ulardan odatda foydalaniladigan maqsadlardan farqli maqsadlarda foydalanish, yoxud sanitariya me’yorlari va qoidalari, texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan alkogolsiz ichimliklarni ulardan har qanday maqsadlarda foydalanish va qo‘llash uchun yaroqsiz, shuningdek, ularning odamga, hayvonlarga va atrof-muhitga nomaqbul ta’sirini istisno etuvchi holatga keltirish;

vakolatli organlar — O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati.

Texnik tartibga solish obektlarini identifikatsiya qilish qoidalari

7. Alkogolsiz ichimliklarni identifikatsiya qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

mahsulot to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarni hisobga olib, mahsulotning asoslangan tanlovi bo‘yicha iste’molchilar huquqlarini ta’minlash;

iste’molchilarni nohalol tayyorlovchi (sotuvchi)lardan himoya qilish;

mahsulotning, jumladan, uning nomining Texnik reglament talablariga muvofiqligini belgilash;

mahsulotning ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) tomonidan berilgan ma'lumotga muvofiqligini tasdiqlash;

bozorning barcha ishtirokchilari manfaatlari muhofazasini ta'minlash.

8. Texnik reglamentda qo'llanilishiga nisbatan alkogolsiz ichimliklarning texnik tartibga solish obyektlariga tegishliligini belgilash uchun identifikasiya qilish:

O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqaradigan tayyorlovchi;

mahsulotning muvofiqligini baholash va tasdiqlash maqsadida — sertifikatlashtirish organi;

mahsulotning Texnik reglament talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida — davlat nazorat organi tomonidan amalga oshiriladi.

9. Mahsulotni tashqi ko'rinishi, tamg'asi, ilova qilinadigan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga asosan identifikasiya qilish imkoniyati mavjud bo'lmasa, texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarni aniqlash yo'li bilan identifikasiya qilishga ruxsat beriladi.

10. Ishlab chiqarish obyektidagi identifikasiya qilinmagan alkogolsiz ichimliklar (eksport uchun ishlab chiqarilgan alkogolsiz mahsulotlar bundan mustasno) utilizatsiya qilinadi.

Xavfsizlik talablari belgilanadigan alkogolsiz ichimliklar

RO'YXATI

T/r	Nomi	Ta'rifi
1.	Alkogolsiz mahsulot	Suv bilan aralashtirish orqali tayyorlanadigan (siroplar, konsentratlar, quruq aralashmalar) alkogolsiz ichimliklar va oziq-ovqat yarim tayyor mahsulotlar.
2.	Alkogolsiz ichimliklarning konsentratlari	Tayyor alkogolsiz ishlab chiqarish mahsulotlarining asosiy komponentlarini to'laligicha yoki bir nechta komponentlaridan olinadigan yarim tayyor mahsulotlarni o'z ichiga oluvchi tayyor alkogolsiz ishlab chiqarish mahsulotlari; konsentratlar keyinchalik tarkibida to'yingan yoki to'yinmagan uglerod dioksidi bo'lgan suv (iste'mol, mineral, tabiiy-oshxona), yetishmaydigan komponentlar bilan aralashtirish uchun qo'llaniladigan bir yoki bir necha qismlardan iborat bo'lishi mumkin.
3.	Vino va vinomateriallarga asoslangan ichimliklar va kokteyllar	Turli xil vino va vinomateriallari aralashmasi yordamida ishlab chiqarilgan, tarkibida spirt miqdori 1,2 foizdan ko'p bo'lmagan alkogolsiz ichimliklar.
4.	Alkogolsiz ichimliklar	Ichimlik holidagi (tarkibida ichimlik suvi, mineral va tabiiy-oshxona suvi, meva, sabzavot, don yoki boshqa o'simlik xomashyosi (ekstraktlar, infuziyalar), vino va vinomateriallar, konsentratlar, sut mahsulotlari, shakar yoki uning o'rnini bosuvchi moddalar, ta'm va hid beruvchi qo'shimchalar, boshqa oziq-ovqat qo'shimchalari va tarkibiy

T/r	Nomi	Ta’rifi
		qismlari, oziq-ovqat bo‘yoqlaridan foydalanib tayyorlangan, issiq yokisov uq holda quyiladigan) to‘yingan yoki to‘yinmagan uglerod dioksidli tayyor alkogolsiz ishlab chiqarish mahsulotlari.
5.	Tiniq bo‘lмаган ichimliklar	Ichimlikka xira ko‘rinish beradigan tabiiy va (yoki) sintetik kelib chiqishga ega oziq-ovqat moddalar yordamida tayyorlangan alkogolsiz ichimliklar.
6.	Kukunsimon ichimliklar	Qayta tiklash yo‘li bilan alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan kukun, granulalar yoki tabletka shaklidagi “alkogolsiz ichimliklar” hisoblanadigan turli xil xomashyolarning aralashmasi.
7.	Meva va/yoki sabzavot sharbatli ichimliklar	Tarkibiga 4 foizdan kam bo‘lмаган meva va/yoki sabzavot sharbati qo‘shilgan alkogolsiz ichimliklar.
8.	O‘simlik xomashyoli ichimliklar	Tarkibi ekstraktlar, infuziyalar, dekoatsiyalar, konsentratlar va o‘simlik, meva, shu jumladan shirin-xushbo‘y xomashyolardan iborat alkogolsiz ichimliklar.
9.	Don xomashyoli ichimliklar	Don xomashyosi va uning mahsulotlarini hid-ta’m beruvchi oziq-ovqat qo‘shimchalari, bo‘yoqlar va boshqa komponentlar yordamida qayta ishlash asosida ishlab chiqarilgan alkogolsiz ichimliklar.
10.	Xushbo‘ylashtirgichli ichimliklar	Tabiiy va (yoki) tabiiy bilan bir xil va (yoki) sun’iy xid beruvchi muddalar yoki ularning aralashmasi (essensiya, efir moylari, emulsiyalar va boshqalar) yordamida ishlab chiqarilgan, tarkibida sharbat bo‘lмаган alkogolsiz ichimliklar.
11.	Achitilgan ichimliklarva kvaslar	Tarkibida etil spirtining hajmi 1,2 foizdan oshmaydigan spirt achitqisi yoki spirt va don ekstraktlarining tugallanmagan sut kislotali achitqisi hamda sabzavot, meva, rezavor ekstraktlar va o‘simliklarning tabiiy shakarli boshqa xomashyolari va mahsulotlari bilan hid va ta’m beruvchi qo‘shimchalarni qo‘shib yoki qo‘shmasdan ishlov berilgan alkogolsiz ichimliklar.
12.	Maxsus tayyorlangan ichimliklar	Tarkibida ingrediyyentlar (jismoniy qiymatga ega, sog‘lik uchun xavfsiz, aniq fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega), mavjud xususiyatlari aniqlangan va fan tomonidan o‘rganilgan alkogolsiz ichimliklar; maxsus tayyorlangan ichimliklar tetiklashtiruvchi, sport, diabetik, parhezbop va iste’molchilarning muayyan toifasi uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.
13.	Energetik ichimliklar	Tarkibida 150 mg/l dan ortiq kofein va (yoki) inson organizmiga tetiklashtiruvchi ta’sir ko‘rsatish uchun yetarli miqdorda boshqa tarkibiy qismlar mavjud ichimliklar.
14.	Gazlangan ichimliklar	Ichimlik idishini ochganda bosimning tushishi hisobiga ichimlikdan qisman pufak shaklida ajralib chiqadigan, tarkibida umumi massanening 0,2 foizidan kam bo‘lмаган miqdorda erigan uglerod dioksid mavjud alkogolsiz

T/r	Nomi	Ta’rifi
		ichimliklar.
15.	Gazlanmagan ichimliklar	Tarkibida umumiy massaning 0,2 foizidan kam miqdorda erigan uglerod dioksidi mavjud alkogolsiz ichimliklar.
16.	Kiritmali ichimliklar	Tarkibida o’simliklarning turli tarkibiy qismlari — urug‘, et (quyqa), pulpa mavjud bo‘lgan alkogolsiz ichimliklar.
17.	Funksional ichimliklar	Tarkibida turli oziq-ovqat qo‘sishimchalari va ta’m beruvchi moddalar qo’shilgan yoki qo’shilmagan, bir yoki bir qancha funksional oziq-ovqat ingrediyyentlar miqdori mavjud, muntazam iste’mol qilishda, yetaricha inson organizmining jismoniy funksiyasini ijobiy natija bilan ta’minalash uchun xizmat qiladigan, asosi suvdan iborat suyuq funksional oziq-ovqat mahsuloti.
18.	Tetiklashtiruvchi ichimliklar	Tarkibida inson organizmiga tetiklashtiruvchi ta’sir ko’rsatadigan individual kimyoviy moddalar qo’shilgan ichimliklar. Tetiklashtiruvchi komponentlarga kofein, glikozidlar, taurin, eleuterozidlar, sxizandrin, glyukuronolakton kiradi.
19.	Alkogolsiz ichimliklar tayyorlash uchun quruq aralashma (keyingi o‘rinlarda quruq aralashma deb ataladi)	Ma’lum bir nisbatda ichimlik yoki tabiiy mineral suv bilan aralashtirish orqali alkogolsiz ichimliklar tayyorlash uchun mo’ljallangan quruq oziq-ovqat yarim tayyor mahsuloti.
20.	Sirop	Ma’lum bir nisbatda ichimlik yoki tabiiy mineral suv bilan aralashtirish orqali alkogolsiz ichimliklar tayyorlash uchun mo’ljallangan oziq-ovqat yarim tayyor mahsuloti.

ADABIYOTLAR:

1. Sattorova B., Shodiev D., Xakikatxon D. Ferrosenilbenzoy kislotalarning tarkibi va tuzilishini massa spektrometrik va potensiometrik usullar bilan aniqlash // Innovatsion texnologiya: ilmiy-metodik jurnal. - 2021. - V. 2. - yo’q. 11. - S. 56-58.
2. Nabievna S. B., Adkhamjonovich A. A. Tovuq go’shtining kimyoviy tarkibi va xususiyatlari // Innovatsion texnologiya: ilmiy-metodik jurnal. - 2021. - V. 2. - yo’q. 10. - S. 25-28.
3. Sattorova B. N., Asqarov I. R., Jo’raev A. M. Tovuq go’shti tasnifining ba’zi savollari // Olam: kimyo va biologiya. - 2018. - yo’q. 11 (53). - S. 36-38.
4. Sattorova B. N. Men shifokorman. - 2019. - Yo’q. 12 (66).
5. Sattorova B. N., Omonov N. O. O’, O’rinov X. K. U. Xromato-mass-spektrometrda mahalliy tovuq miazasidagi antioksidantlarni aniqlash //Universum: texnika fanlari. - 2021. - yo’q. 5-5(86). - S. 6-8.